



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun

230-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Chiroqchi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi
asosida yer maydonini ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagи “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sон qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 16-apreldagi 232-son va Chiroqchi tumani obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 2-maydagi 94-son buyurtma xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobjiy xulosasi, hududiy arxitektura shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobjiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chiroqchi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi avtomobil ichki yo‘llarini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun egallab turgan 22,8 hektar tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiy lashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanimishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanimaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
230-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil Tashabbusli byudjet doirasida ichki yo‘l ob’ektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida
ma’lumot**

T/r.	Tuman nomi	MFY nomi	Yo‘l uzunligi (km)	Gektari
	Jami		38,0	22,8
1	Chiroqchi tumani	Yangiqurulish MFY Xujaabdijabbor 1-ko‘chasi	3,8	2,28
2		Yangiqurulish MFY Xujaabdijabbor 3- ko‘chasi	3,8	2,28
3		Bolsuvar MFY Sabzavotkor va Davlatobod ko‘chalari	3,8	2,28
4		Ko‘ktosh MFY Ko‘ktosh ko‘chasi	3,8	2,28
5		Mirzato‘p MFY markazi bilan Sarqamish qishlog‘ini bog‘lovchi yo‘l	3,8	2,28
6		Mirzato‘p MFY Mirzato‘p qishlog‘idan o‘tuvchi yo‘lning sariqamish masjidigacha bo‘lgan yo‘l	3,8	2,28
7		Qizilchovra MFY Qizilchovra qishlog‘i ichki yo‘llari	3,8	2,28
8		Langar MFY Langar Qishlog‘i ichki yo‘llari	3,8	2,28
9		Amir Temur MFY Chandaraktepa ko‘chasi ichki yo‘llari	3,8	2,28
10		G‘allachi MFY Chig‘ana qishlog‘i ichki yo‘llari	3,8	2,28

